

BUG‘-GAZ QURILMASI GRADIRNIYALARIDA AYLANMA SUV ISROFINI KAMAYTIRISH

¹Qobilbek Dadaboyev Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti , “Sanoat issiqlik energetikasi” kafedrası doktoranti, O‘zbekiston.

²Baxtiyor Yunusov Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti , “Sanoat issiqlik energetikasi” kafedrası, O‘zbekiston


Suv sovutish minorasi - sovutish tizimidagi kondensatsiya jarayonida ishtirok etadigan “Texnik suv”ning umumiy sikl bo‘ylab va sikldan qaytgandan keyin haroratini pasaytirishga xizmat qiladi. 26-28°C haroratli aylanma suvdan issiqlikni olib tashlaydi va bu issiqlikni kiruvchi havo oqimiga o‘tkazadi, natijada sovutish tizimini 16-18°C doimiy haroratli texnik suv bilan ta‘minlaydi [1]. Aynan shu jarayonda texnik suv havo bilan atmosferaga suv bug‘i va zarralari ko‘rinishida yo‘qotiladi. Shu isrofnı kamaytirish maqsadida quyidagi qurilmani tavsiya qilamiz [2].

Pog‘onali suv tutgich qurilmasi o‘rnatish

Tavsiya etilgan Pog‘onali suv tutgich qurilmasi bir nechta talablarga javob berishi kerak.

1. Qurilmaning ishlashi o‘zini oqlashi.
2. U iloji boricha sodda tuzilishga ega bo‘lishi kerak.
3. Ish sharoitida energiya talab qilmasligi.
4. Mexanik deformatsiyaga bardoshliligi .
5. Kimyoviy korroziyaga chidamliligi.

Favqulodda vaziyatlar uchun onson o‘rnatish va bo‘shatish bo‘laklarga bo‘linishi mumkin. Albatta, tuz zarralari to‘planib, pog‘onalar orasidagi tuz qatlamlarini hosil qilish xavfi mavjud. Shuning uchun uni tozalash maqsadida bo‘shatib olish oson bo‘lishi zarur [3].



1-rasm. Qurilmada suvni ushlab qolish.

Umumiy sovutish minorasi uchun jami 22 ta shunday moslamani o‘rnatadigan bo‘lsak, biz yo‘qotilgan texnik suv zarralari va tomchilarining 65-70 foizini ushlaymiz. Ya‘ni 600 m³ /soat umumiy yo‘qotishning 50% bug‘, 50% suv zarralari va tomchilari, 300 m³ suv zarralari va tomchilari ko‘rinishida bo‘ladi.



65% texnik suv 195 m³ ni tashkil qiladi. Agar pulga chaqadigan bo‘lsak, har soatda tejalgan mablag‘ 8 775 000 ni tashkil qiladi. Bir soatda yo‘qolgan miqdor 27 000 000 ni tashkil etdi. Bu umumiy miqdorning 32,5 foizini tashkil etadi. Bu ventilator tuynigi orqali yo‘qolgan isrofning 32,5 foizini anglatadi. Agar ushbu qurilma ishlab chiqarishga joriy etilsa, qurilmamiz o‘z narxini albatta oqlaydi va stansiya yanada iqtisodiy samaradorlikka erishadi. Bu bilan yurtimiz ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shamiz degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] ГРАДИРНИ ПРОМЫШЛЕННЫХ И ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В.С.ПОНОМАРЕНКО Ю.И.АРЕФЬОВ ,179-184.
- [2] Dadaboyev, Q. Q. (2021). [Refrigerator in modern heating power stationstechnical water waste through reconstruction of the towerreduction](#). “ International journal of philosophical studies and social sciences ”, 1(3), 96-101.
- [3] MITSUBISHI HITACHI POWER SYSTEMS kompaniyasi To‘rao‘rg‘on IES qurilish loyihasi kitobi, 3-jild.
- [4] Dadaboyev , QQ (2022). [Issiqlik elektr stansiyalarida texnik suv isrofini barataraf etish](#) . “ Akademik tadqiqot ichida tarbiyaviy fanlar ”, 3(1), 434-440. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-41-47>.
- [5] [СНИЖЕНИЯ ПОТЕРЬ ОБОРОТНОЙ ВОДЫ В ГРАДИРНЕ ПАРОГАЗОВОЙ УСТАНОВКИ](#)
БХ Юнусов, КК Дадабоев - Research Focus, 2022, 1(1), 227-231.